



UDK: 611.91+616-053.5

Gulrux ULUG'BEKOVA,
Andijon davlat tibbiyot instituti dotsenti, t.f.n
<https://orcid.org/0000-0002-1472-8188>
E-mail: ulugbekovagulruh@gmail.com
Shohjahon ADHAMOV,
Andijon davlat tibbiyot instituti talabasi
E-mail: shohjahonadti@gmail.com

Toshkent xalqaro kimyo universiteti dotsenti, t.f.n R.L.Ubaydullayevning taqrizi asosida

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA YUZNING MORFOLOGIK BALANDLIGI O'SISH DINAMIKASI

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada bolalar va o'smirlar jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini baholashning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan kraniometrik tadqiqotlar natijasi aks etgan. Maqolada yuz sohasining kraniometrik ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan yuzning morfologik balandligi tavsifi, ushbu ko'rsatkichni o'lchash uslublari, kichik maktab yoshidagi bolalarda yuzning morfologik balandligining yoshga bog'liq ravishda o'sib borish dinamikasi, tadqiqotdan olingan natijalar tahlili haqidagi ilmiy-amaliy fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kichik maktab yoshidagi bolalar, yuz sohasi, kraniometriya, yuzning morfologik balandligi, yoshga doir xususiyatlar, o'sish dinamikasi.

ДИНАМИКА РОСТА MORFOЛОГИЧЕСКОЙ ВЫСОТЫ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация

В данной статье дали собственные данные кра́ниометрических исследований, являющих одним из актуальных научных направлений как физическая развитие детей и подростков. В статье дано классификация морфологической высоты лица, методы измерения, динамика роста развития морфологической высоты лица.

Ключевые слова: Дети младшего школьного возраста, лицевая область, кра́ниометрия, морфологическая высота лица, возрастные особенности, динамика роста.

GROWTH DYNAMICS OF THE MORPHOLOGICAL HEIGHT OF THE FACE IN CHILDREN OF JUNIOR SCHOOL AGE

Annotation

This scientific article reflects the results of craniometric research, which is one of the priority directions for assessing physical development indicators of children and adolescents. The article describes the description of the morphological height of the face, which is one of the craniometric indicators of the face area, the methods of measuring this indicator, the dynamics of growth of the morphological height of the face in children of junior school age depending on age, scientific and practical opinions about the analysis of the results obtained from the research are highlighted.


Key words: Children of junior school age, facial area, craniometry, morphological height of the face, age-related characteristics, growth dynamics.

Kirish. Ma'lumki, bolalar va o'smirlarning salomatlik holatini tavsiflashda ularning jismoniy o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlarini tadqiq qilish va baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu o'rinda kraniometrik ko'rsatkichlarni tadqiq etish maqsadida Andijon viloyatining Izboskan tumanida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalarda kraniometrik o'lchashlar, xususan yuzning morfologik balandligini yoshga xos ravishda o'sish dinamikasini o'rgandik. Taqiqot jarayoniga Izboskan tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli 41-umumta'lim maktabida ta'lim olayotgan 1-6-sinf o'quvchilari (165 nafar) jalb etildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yuzning morfologik balandligi bosh o'lchamlaridan biri bo'lib, amaliy tomondan kalla ko'rsatkichlaridan yuzning to'liq balandligiga tengdir.

Yuzning morfologik balandligi – bu ko'rsatkich odatda nazion (n) va gnation (gn) nuqtalari orasidagi masofa. Biroq ayrim adabiyotlarda esa sellion (se) va gnation (gn) nuqtalari orasidagi masofaga teng deb olinadi (L.I. Tegako, I.I. Salivon, 1989). Biz tadqiqot jarayonida sellion (se) va gnation (gn) nuqtalari orasini o'lchadik. Ushbu ko'rsatkichni bolalarda yuqorigi va pastki tish qatorlarini me'yoriy jipslashgan holatida shtangensirkul yordamida o'lchadik. (1-rasm)

1-rasm. Yuzning morfologik balandligini o'lchash sohasi



Yuzning morfologik balandligi ko'rsatkichlarini o'lchashda Speranskiy V.S., Zaychenko A.I. (1980, 1988) va Avtandilov G.G. (1990) usullaridan foydalanildi. Ko'rsatkichlarni o'lchash jarayoni tik turgan holatda amalga oshirildi. Kranimetrik ko'rsatkichlarni o'lchash jarayonida Marthin R. (1928) tomonidan tavsiya etilgan kranimetrik nuqtalardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, yuzning morfologik balandligi ko'rsatkichi 7 yoshdagi o'g'il va qiz bolalarda deyarli bir xil bo'ladi (o'g'il bolalarda $9,72 \pm 0,10$ sm qiz bolalarda $9,71 \pm 0,04$ sm). Ushbu ko'rsatkich o'g'il bolalarda 8 yoshda $9,84 \pm 0,16$ smni, 9 yoshda $9,92 \pm 0,20$ smni, 10 yoshda $10,50 \pm 0,30$ smni 11 yoshda esa $10,90 \pm 0,02$ smni tashkil etishi tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldi. Yuzning morfologik balandligi qiz bolalarda esa 8 yoshda $9,80 \pm 0,12$ smga, 9 yoshda $9,80 \pm 0,12$ smga, 10 yoshda $9,90 \pm 0,22$ smga, 11 yoshda, esa $10,70 \pm 0,18$ smga teng bo'lishi aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, yuzning morfologik balandligi ko'rsatkichi o'g'il va qiz bolalarda o'sishda davom etib, 12 yoshda o'g'il bolalarda $11,1 \pm 0,12$ smga, qiz bolalarda $10,80 \pm 0,20$ smga tenglashadi. 7-12 yoshgacha bo'lgan davrda o'g'il bolalarda ko'rsatkich 13,4 % ga oshsa, qizlarda esa 11,1 % ga oshadi.

1-jadval. Izboskan tumanida yashovchi kichik maktab yoshidagi (7-12 yosh) bolalarda yuzning morfologik balandligi o'sish dinamikasi ($X \pm m$, sm da)

Yoshi	7	8	9	10	11	12
O'g'il	$9,72 \pm 0,10$	$9,84 \pm 0,16$	$9,92 \pm 0,20$	$10,50 \pm 0,30$	$10,90 \pm 0,02$	$11,1 \pm 0,12$
Qiz	$9,71 \pm 0,04$	$9,80 \pm 0,12$	$9,84 \pm 0,12$	$9,90 \pm 0,22$	$10,70 \pm 0,18$	$10,80 \pm 0,20$

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalaridan shuni xulosa qilish joizki, Izboskan tuamnida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalarda yuzning morfologik balandligi boshning barcha kranimetrik ko'rsatkichlari kabi yoshga mos ravishda o'sib boradi. 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan davr mobaynida o'g'il bolalarda yuzning morfologik balandligi 13,8 % ga, qiz bolalarda esa 11,3 % ga ortishi tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Ulugbekova G.J., Adkhamov Sh.A. The role of "ANATOMAGE SMART TABLE", "SMART BOARD" in 3D, 4D format in the study of physical development indicators of children and adolescents // Tibbiyotda yangi kun ilmiy referativ, ma'rifiy-ma'naviy jurnal. -2023. 2 (52), 202-206-b.
2. Shokirov X.U. Andijon viloyati Andijon shahri sharoitida yashovchi kichik maktab yoshidagi bolalarning kranimetrik ko'rsatkichlari // Magistrlik dissertatsiyasi. Andijon-2017.
3. Атахонов А.А., Хатамов А.И., Улугбекова Г.Ж. Андижон вилояти Асака тумани шароитида яшовчи мактаб ёшидаги болаларда бошнинг юз кисмини краниометрик кўрсаткичлари. О'zbekiston terapiya axborotnomasi.- 2015. № 3, 84-86-b.
4. Атаханов А.А. Андижон вилояти Асака тумани шароитида яшовчи ўрта мактаб ёшидаги болаларнинг краниометрик кўрсаткичлари. //Диссертация. Андижан-2015.
5. Раимжанов Р.Р. Андижон вилояти Андижон тумани шароитида яшовчи кичик мактаб ёшидаги болаларнинг краниометрик кўрсаткичлари. //Диссертация. Андижан, 2014.
6. Автандилов Г. Г. Медицинская морфометрия: руководство / Автандилов Г.Г. М.: Медицина, 1992. - 380 с.
7. Автандилов Г. Г. Медицинская морфометрия. - М.: Медицина, 1990. - 384 с.
8. Алексеев В.П. Остеометрия. - М.: Наука, 1966. - 250 с.
9. Алексеев В.П., Дебец Г.Ф. Краниометрия. Методика антропологических исследований - М.: Наука, 1964. - 127 с.
10. Владимиров Э.Д. Антропология. // Уч. метод. пособие. - Самара: СамМУ, 1999 - 74 с.
11. Звягин В.Н. Методика краниоскопической диагностики пола человека. – Судебно-медицинская экспертиза. – 1983. т.26, – №3. – С. 15-17.
12. Куприянов В.В., Стовичек Г.В. Лицо человека: анатомия, мимика. - М.: Медицина, 1988. - с. 13-22.
13. Никитюк Б.А., Чтецов В.П. Морфология человека. - М.: Изд. МГУ, 1990. - 337 с.
14. Синельников Р.Д., Синельников Я.Р. Атлас анатомии человека 1 том. - М.: Медицина, 1996. - 343 с.
15. Тишевской И.А. Возрастная и конституциональная антропология. // Учеб. пособие. – Челябинск: Изд-во ЮУрГУ, 2000. – 56 с.
16. <https://www.med.uz>
17. <https://www.tib.uz>
18. <https://www.dissercat.com>